

MoneyGram – bu tezkor xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi hisoblanadi. MoneyGram kompaniyasi hisob raqamini ochmasdan dunyo bo‘yicha pul o‘tkazmalarini amalga oshirib, dunyoning 190 ta davlatlaridagi 227000 dan ortiq mijozlarga xizmat ko‘rsatish shahobchalarini birlashtiradi. Ushbu tizim dunyo mamlakatlarini qamrab olishi va xizmat ko‘rsatish shahobchalarining soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. MoneyGram -bu, pullarni tez va oson ravishda o‘tkazish xizmati bo‘lib hamisha xizmatga tayyor turadi.

O‘zbekistonda MoneyGram pul o‘tkazmalari bilan quyidagi banklar faoliyat ko‘rsatadilar: Ipak Yo‘li banki, kapitalbank, Xamkorbank, Invest Finance Bank, Turonbank, Qishlok qurilish banki, Hi-Tech Bank.

2004 yildan e‘tiboran MoneyGram kompaniyasi egasi bo‘lib Viad Corp. va Travelers Express Company Inc. Kompaniyalari hisoblanadi. Bugungi kunda MoneyGram - Amerikadagi mustaqil kompaniya bo‘lib, uning aksiyalari Nyu-York fond birjasida oldi-sotti qilinadi.

Evropada esa MoneyGram hamkorlari bo‘lib Buyuk Britaniya va Norvegiya Qirollik pochta, Italiya pochta, Bank of Ireland, Banco Popular Espanol, Kocbank, Finansbank va boshqa ko‘plab moliyaviy tashkilotlar hisoblanadi.

MDH mamlakatlarida MoneyGram xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi 1996 yildan faoliyat ko‘rsatib kelmoqda va bugungi kunda Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruzziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, O‘zbekiston, Ukraina kabi deyarli barcha respublikalarni qamrab olib, bu mamlakatlarda 7000 dan ortiq xizmat ko‘rsatish shahobchalarini o‘z ichiga oladi.

Mannigramma – pul o‘tkazmasining o‘zi shunday deb nomlanadi. Birinchi Manigramma 1940 yilda Minneapolisda (AQSh) yuborilgan edi. MoneyGram Kompaniyasining o‘zi kechayukunduz haftada har kun ishlaydi, shuning uchun pul o‘tkazish vaqti atigi 10 daqiqani tashkil etadi. Ammo, mannigrammani yuborish vaqtida har doim shuni yodda tutish kerakki, pul o‘tkazish tezligi hamisha o‘z tuzatishlarini kiritadi, turli mamlakatlar va qit‘alar bo‘yicha vaqt mintaqasi turlicha bo‘lsa, MoneyGram Kompaniyasi ofislari, hamkorlarining bo‘limlari va banklar ish vaqti ham har-xil bo‘ladi. Manigrammani pul oluvchi uchun 10 ta so‘zgacha hajmda bepul matnli xabar bilan yuborish mumkin. Pul oluvchi uchun ham ushbu xabarnoma bepul bo‘ladi.

Pul o‘tkazish bo‘yicha MoneyGram xizmatlari faqatgina jismoniy shaxslar uchun ko‘rsatiladi. MoneyGram tizimi bo‘yicha pul o‘tkazmalaridan ham bank mijozlari, ham bank hisob raqamiga ega bo‘lmagan insonlar foydalanishlari mumkin. Shunday sharoitlar bo‘ladiki, MoneyGram xizmatlaridan foydalanish juda zarur bo‘lib qoladi:

§ biron-bir kimsa chet elda mehnat qilganda va muntazam ravishda o‘z yaqinlariga pul o‘tkazib turganda;

§ agar sizning farzandlaringiz chet elda ta‘lim olsa yoki u erda o‘z ta‘tilini o‘tkazsa va ularning o‘qishiga yoki u erda turishiga pul to‘lash kerak bo‘lganda;

§ boshqa davlatda bo‘lgan yaqinlaringiz, do‘stlaringiz, xodimlaringizga tezda moddiy yordam ko‘rsatish kerak bo‘lganda;

§ sayyohlarga biron-bir ko‘zda tutilmagan voqea-hodisa yuzaga kelganda;

§ biznesmenlarga o‘z xodimlariga zarurat yuzasidan tezda pul o‘tkazish kerak bo‘lganda va h.k.

Pul o‘tkazmasi summasi darhol to‘lanadi, mijozning istagi bo‘yicha unga qulay bo‘lgan valyutada – naqd pulda AQSh dollari, Evro, pul o‘tkazmasini olgan davlat mahalliy valyutasida. Pul o‘tkazmasini bir valyutada o‘tkazib, uni boshqa valyutada olish pul olish shahobchasidagi valyutani sotishning joriykursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Shu narsani hisobga olish kerakki, agar siz istiqomat qiladigan aholi punktida MoneyGram bilan ishlovchi bir nechta banklar bo‘lsa-yu, siz olinadigan valyutani konvertatsiya qilmoqchi bo‘lsangiz, bir qancha shahobchalardagi valyutani ayirboshlash kurslarini tekshirib chiqing – ular bir-biridan farq qilishi mumkin.

MoneyGram tizimi bo‘yicha pul o‘tkazmalarini amalga oshirish tariflari

O‘zbekiston Respublikasidan MDH mamlakatlari, Gruzija va Izroilga (AQSh Dollarida)		Rossiyadan MDH mamlakatlari, Gruzija va Izroilga (AQSh Dollarida)	
Pul miqdori	Komissiya	Pul miqdori	Komissiya
1-100	2	100	2
100,01-200	4	100,01 – 200	3
200,01-300	6	200,01 – 300	5
300,01-400	8	300,01 – 400	6
400,01-500	10	400,01 – 500	8
500,01-600	12	500,01 – 600	10
600,01-700	14	600,01 – 700	12
700,01-800	16	700,01 – 800	14
800,01-900	18	800,01 – 900	15
900,01-1000	20	900,01 – 1000	16
1000,01-2000	35	1000,01 – 2000	32
2000,01-3000	50	2000,01 – 3000	48
3000,01-4000	70	3000,01 - 5000	80
4000,01-5000	100	5000,01 – 10000	90

O‘zbekiston Respublikasidan Xitoyga (AQSh Dollarida)		O‘zbekiston Respublikasidan uzoq chet el mamlakatlariga (AQSh Dollarida)	
Pul miqdori	Komissiya	Pul miqdori	Komissiya
0,01 – 300	9	0,01 – 100	10
300,01 – 600	18	100,01-250	18
600,01 – 1000	25	250,01-400	24
1000,01 – 2000	50	400,01 – 600	34
2000,01 – 5000	80	600,01 – 800	39
		800,01 – 1000	44
		1000,01 – 1200	60
		1200,01 – 1800	65
		1800,01 – 2500	70
		2500,01 – 5000	100

Qanday qilib pul o‘tkazmasini yuborish mumkin?

Firma logotipi borligiga qarab Sizga eng yaqin bo‘lgan MoneyGram shahobchasini toping;

Pul o‘tkazmasini amalga oshirish uchun maxsus blankni to‘ldiring va shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsating;

Pul o'tkazmasi hamda komissiyani to'lang;

Pul o'tkazmasini qayd etish nomeri va pul qabul qilinganligi to'g'risidagi kvitantsiyani oling;

Pul oluvchini pul o'tkazmasining qayd etish nomerini to'g'risida xabardor qiling va 10 daqiqadan so'ng pullar olish uchun tayyor bo'ladi.

Pul o'tkazmasini qanday qilib olish mumkin?

Mablag'ni yuborgan shaxsdan pul o'tkazmasini qayd etish nomerini bilib oling;

Istalgan Manigrammani olish (MoneyGram) shahobchasiga keling;

Pul o'tkazmasini qayd etish nomerini ko'rsatib pul o'tkazmasini olish blankasini to'ldiring va shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni ko'rsating;

Pulni olishingiz mumkin

MoneyGram mahfiylikni, pullarning to'liq butligini va biron-bir sabab tufayli pul olinmay qolganda yoki pul yuboruvchining to'satdan rejalari o'zgarib qolganda pullarni qaytarib berishlikni kafolatlaydi.

Pul yuboruvchi pul oluvchi tomonidan olinmagan pul o'tkazmasini MoneyGram tizimi bilan ishlovchi bank bo'limiga uchrashib cheklanmagan muddat ichida qaytarib olishi mumkin. Agar pul o'tkazmasi yuborilgan kundan boshlab 45 kundan ortiq muddat o'tib ketgan bo'lsa, u holda pul o'tkazuvchi MoneyGram kompaniyasiga uchrashishi kerak bo'ladi. Shundan so'ng pul o'tkazmasini qayta tiklanib unga yangidan ro'yxatdan o'tkazilib unga yangi ro'yxatga olish nomeri beriladi va MoneyGram bilan ishlovchi istalgan bankda ushbu pul o'tkazmasini olish mumkin bo'ladi.

Pul o'tkazmasi bo'yicha cheklovlar

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bir kunda chet el valyutasini 5000 AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan ekvivalent miqdorda yuborishlari mumkin. Chet el fuqarolariga mazkur cheklov qo'llanilmaydi. Bir yilda 10000 AQSh dollaridan ortiq miqdorda pul o'tkazmasi amalga oshirilganda, pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumot fuqaroning turar joyi bo'yicha joylashgan soliq idoralariga taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bojxona organlari tomonidan rasmiylashtirilgan chet eldan olib kirilgan naqd chet el valyutasini olib kirilganligini tasdiqlovchi hujjatni va tegishli bank tomonidan hisob raqamidan avval pulning berilganligi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etgan holda chet elga istalgan miqdordagi mablag'ni yuborishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun quyidagi saytga murojaat etishingiz mumkin: [www.moneygram.com](http://www.moneygram.com)